

**RAQAMLI IQTISODIYOTDA KIBERXAVFSIZLIKNING
AHAMIYATI**

Yo'ldosheva Zebinisobegim Farrux qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya

Universiteti, Toshkent, O'zbekiston,

Email: z91262501@gmail.com

Abstract: Ushbu maqolada hozirgi davrda raqamli iqtisodiyotga katta ahamiyatga ega bo'lgan kiberxavfsizlik haqida so'z yuritiladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sababli kiberxavfsizlikning ahamiyati yanada oshayapti. Shu sababli, maqolada kiberxavfsizlikning raqamli iqtisodiyotga bo'lgan muhim rolini tahlil qilish, kiberxavfsizlikning asosiy jihatlari, zamonaviy xavf-xatarlarni va ularga bolgan yechimlari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Raqamli iqtisodiyot o'sgani sari axborot-texnologiyalar va ularning xavfsizlik choralari o'zaro uyg'un bo'lishi kerakdir. Shu sababdan, ushbu maqolada kiberxavfsizlikning kelli chiqishi, raqamli iqtisodiyotda yuz keladigan kiber hujumlar haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Key words: Raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, hujumlar, axborot va texnologiyalar, xavf, kiberjinoyat.

1. Kirish

Hozirgi XXI asr texnologiya asridir, Kundan kunga yangi texnologiyalar yaratilib, electron xizmatlar yo'lga qo'yilmoqda va bu kundalik hayot uchun katta o'zgarishlar olib kiradi. Axborot-kommunikatsiyalar katta o'rin egallab, raqamli ma'lumotlarni almashish va yangi ma'lumotlarni kiritish va ularga kirish tezligi yana osonlashdi. Bu kabi imkoniyatlar jamiyatga, hukumatga, iqtisodiyotni rivojlanishiga va insonlarning kundalik turmush tarziga yanada qulayliklar olib kirdi. Barcha ma'lumotlar elektronlashgani sari, ularni himoya qilish birinchi darajali vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli bu kabi elektron



ma'lumotlarni asrash, kiber tahdidlardan himoya qilish uchun hukumat tomonidan kiberxavfsizlik chora tadbirlari yo'lga qo'yilgan.

Kiberxavfsizlik raqamli iqtisodiyotda ham katta ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot, asosan, axborot-kommunikatsiyalardan foydalanilgan holda olib boriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Uning asosiy komponentklariga elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli bank xizmatlari kiradi. Raqamli iqtisodiyotning kengayib borishi bilan birga kiber tahdidlar hamkengayib bormoqda. Agarda, ma'lumotlarni o'g'irlanishi, turli xil firibgarliklar, yoki zararli dasturlarni ishga tushirib yuborilishi ko'plab biznes egalariga va ko'plab davlat sektorlariga katta zarar yetkazadi.

2. Adabiyotlar sharhi

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik nafaqat texnik muammo balki, ijtimoiy va siyosiy muammolardan biridir. Amerikalik kriptograf Bruce Schneiarning 2015-yilda yozgan "Data and Goliath: The Hidden Battles to Collect Your Data and Control Your World" kitobida kiberxavfsizlikni strategik va texnik jihatlarini keng ko'lamda tushuntirib o'tgan. Bunga ko'ra kiberxavfsizlikni ta'minlashda texnik vositalar juda ham muhimdir. Ularga ko'ra har bir ma'lumotlarni maxfiylashtirishning eng samarali usulidan biri shifrlash texnologiyalaridan qo'llanishidir. Har xil hujumlarga qarshi samarali turib bera oladigan tarmoq xavfsizligi strategiyalarini ishlab chiqishi kerak va eng asosiylaridan biri har bir yaratilgan kodlarni muntaazam ravishda kuzatib borilishi va xavf xatarlarni bartaraf etishi lozim. Ammo, Schneiarning ta'kidlashicha, faqatgina texnik choralar bilan xavf xatarnim bartaraf etishlikning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun bir necha strategik yondashuvlarni qo'llash kerakligini aytadi. Bulardan, hukumat yoki xalqaro tashkilotlar ma'lumotlarni himoya qilishda kerakli bo'ladigan standartlarni va qonunlarni ishlabchiqishi lozim. Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni muhofazasi zarur va eng asosiysi, jamoatni xabardor qilish kereakligi haqida ta'kidlaydi. Oddiy foydalanuvchilar kiberxavfsizlik tahdidlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishsa, o'zlarining shaxsiy xavfsizliklarini ko'rishlarini bilishadi.

3.Data. Metodologiya



3.1.Data. Kiberxavfsizlik hozirda jadal rivojlanib borayapti va bunga ko'plab ta'riflar keltirilgan. CSEC2017 Joint Task Force manbasida kiberxavfsizlikga shunday ta'rif berilgan: “ kiberxavfsizlik – hisoblashlarga oid soha hisoblani, buzg'unchilar bor paytda amallarni to'g'ri bajarilishini kafolatlashi uchun o'zida texnologiya, inson, axobort va jarayonlarni mujassamlashtiradi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanarkan, kiberxavfsizlik muammolari dolzarb bo'lib boradi. Hozirda kiberhujumlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos usul va zarar yetkazish mexannizmiga ega. Ulardan biri, Phishing hujumi eng ko'p uchraydi. Bunda hujumchilar tomonidan yolg'on habar orqali shaxsiy ma'lumotlarni berishga majburlaydi. Keyingisi, Malware hujumlari turli zararli dasturlar orqali hujum amalga oshiriladi va oqibatida qihujum qilingan qilmada viruslar paydo bo'ladi, yoki josus dasturlari o'rnatilib qoladi. Ransomware hujumlar tarmoqdagi fayllarni bloklab ularni ochish uchun pul talab qilishidir. DDoS hujumlarida kiberhujumchilar server yoki vebb-saytlarga ortiqcha so'rovlar yuborib uni ishdan chiqaradi. MITM hujumida foydalanuvchi va server o'rtasidagi ma'lumotlar o'g'irlanadi. SQL Injection hajumida veb-saytlarni ma'lumotlar bazasiga zarar yetkazish maqsadida noto'g'ri kod kiritib boshqaruvni qo'lga kiritish mumkin.

3.2.Metodologiya. Albatta, barcha o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli xil himoya choralarini ko'rishi lozim. Phishing hujumlarga duch kelmaslik uchun turli xil notanish havolalarno bosmaslik kerak va ikki faktorli autifikatsiyadan foydalanishi zarur. Shantajchi dasturlardan yiroqda bo'lish uchun fayllarni doimiy ravishda zaxiralash va ishonchlli bo'lgan antivirus dasturlaridan foydalanish lozim. DDoS hujumlarini bartaraf etish uchun Firewall,ya'ni, maxsus xavfsizlik devorlari va bulutli xavfsizlik tizimlaridan foydalanish kerak. MITM kiberhujumlardan VPN ishlatish va shifrlangan ulanishlardan foydalanish orqali holis bo'linadi. SQL Injection hujumlaridan o'zini saqlash uchun har bir kodni yozishda xavfsizlik choralarini ko'rish kerak va bu kabi hujumlarni bloklaydigan tizimlardan foydalanish kerak. Agarda shularni inobatga olinsa, kelgusida barcha kiberhujumlardan yiroqda bo'ladi va barchaning ma'lumotlari xavfsizlikda qoladi.



4.Result

Ko'plab tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik choralarini ko'rmagan tashkilotlar katta axborot va moliyaviy yo'qotishlarga duch keladi. Misol qilib shuni aytish joizki 2023- yilda jahon miqyosda kiberjinoyatlar 8 trillion dollar zarar yetkazgan va 60% kiberhujumga uchragan kompaniya bir yil mobaynida bankrotga uchrashi aniqlangan. 95% kiberhujumlar inson xatosi tufayli sodir bo'ladi va o'rtacha bir kiberhujum kompaniyalarga 4,5 million dollar miqdorida zarar yetkazadi.

5.Conclusion

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyot bilan kiberxavfsizlik bir biri bilan chamcharchas bog'liq. Agar raqamli iqtisodiyotda muvofaqqiyat qozonmoqchi bo'linsa, kiberxavfsizlik choralarini ko'rish joiz deb hisoblanadi. Zero, kiberxavfsizlik choralarini ko'magan har bir kompaniya va tashkilotlar kiberhujumdan so'ng bankrotga uchraydi. Har bir ma'lumotni ishonchli dasturlar orqali mustahkamlash ham zarur choralardan biridir. Kiberxavfsizlik choralarini nafaqat texnik yo'l bilan balki, strategik yondashuv bilan ham bartaraf etsa bo'ladi. Barchani ommaviy axborot- kommunikatsiyalari orqali bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni e'lon qilish orqali ham bartaraff etsa bo'ladi.

6.REFERENCES

- Kiberxavfsizlik va uning raqamli iqtisodiyotdagi roli. (2024). Innovatsion Akademiya. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/zdaf/article/view/41545>
- Kiberxavfsizlikning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati. (2024). FarSPublishers. Retrieved from <https://farspublishers.com/index.php/fars/article/view/827>
- iTalent. (n.d.). Kiberhujumlar: nima u va undan qanday himoyalaniish mumkin. Retrieved from <https://italent.uz/blog/kiberhujumlar-nima-u-va-undan-qanday-himoyalaniish-mumkin>
- Scientific Journal. (n.d.). Kiberhujumlar turlari va ularning oldini olish usullari. Retrieved from <https://scientific-jl.org/mod/article/view/5643>



ICT Xabar. (2023). Kiberxavfsizlikka qarshi yetti tahdid. Retrieved from <https://ict.xabar.uz/uz/xavfsizlik/kiberxavfsizlikka-qarshi-etti-tahdid-ularning-o>

Daryo.uz. (2024, February 14). 2023-yilda O‘zbekistondagi veb-resurslarga qancha kiberhujumlar uyushtirilgani ma'lum qilindi. Retrieved from <https://daryo.uz/2024/02/14/2023-yilda-ozbekistondagi-veb-resurslarga-qancha-kiberhujumlar-uyushtirilgani-malum-qilindi>

Akbarova Muattar Raxmatullayevna. (2021). KIBERXAVFSIZLIK – RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4). Available from <https://cyberleninka.ru/article/n/kiberxavfsizlik-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlanishining-muhim-omili> [Accessed 23 March 2025].